



**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA CHOLG'ULARI
TO'GARAKLARNI TASHKIL ETISH**

Mamatov Mashrab Norbek o'g'li

*Respublika musiqa va san'at
oliy maktabi bosh o'qituvchisi,
Qori Niyoziy nomidagi TPMI
mustaqil izlanuvchisi
mmashrab446@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu tezisda umumta'lim maktablarida musiqa to'garagining o'rni, maqsad va vazifalari, ushbu to'garakni tashkil etish uchun talab qilinadigan shart-sharoitlar hamda undan kutiladigan natijalar tahlil qilingan.

kalit so'zlar: umumta'lim maktabi, o'quvchi, musiqa to'garagi, musiqa cholg'ulari, intellektual qobiliyat, estetik qobiliyat

Annotation: This paper analyzes the role, objectives, and tasks of music clubs in general education schools, the conditions required for organizing such clubs, and the expected outcomes.

keywords: general education school, student, music club, musical instruments, intellectual ability, aesthetic ability

Jahonda olib borilayotgan tadqiqotlar musiqani estetik zavq beruvchi va shunchaki qiziqish uchun o'rganiluvchi soha emas, balki o'quvchining kognitiv, ijtimoiy va hissiy salohiyatini oshiruvchi vosita sifatida baholamoqda. Shu sababli musiqa to'garagini tashkil qilish o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari va jamoaviy moslashuvchanligini rivojlantirishda muhim omillardan sanaladi. Xususan, 8-sinfgacha maktab o'quv fanlari tarkibiga kiritilgan "Musiqa" fani yuqori sinflarda "Musiqa to'garagi" tarzida tashkil etilishi ham fanning amaliy ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. 8 – 11-sinf o'quvchilari uchun musiqa to'garaklarini tashkil etishning asosiy maqsadlari quyidagilar:

- o'quvchilarda o'zbek milliy musiqa ijodiga muhabbat uyg'otish;
- milliy (dutor, doira, g'ijjak, nay kabi) cholg'ularda ijro mahoratini shakllantirish;
- jamoani his qilish va unga qo'shila olish (ansambl) ko'nikmasini rivojlantirish;
- musiqa orqali intellektual qobiliyatlarga ta'sir o'tkazish;
- ijodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish;
- milliy qadriyatlarga hurmatni oshirish.

Ushbu sinflar uchun tashkil etiladigan musiqa tugragining vazifalari quyidagilar:

- musiqa nazariyasi va nota savodxonligi asoslarni o'rgatish;



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



- cholg'u sozlarini to'g'ri ushlash, sozlash va ulardan ovoz chiqarish usullarini ko'rsatish;
- xalq kuylari va o'zbek bastakorlari asarlarni o'rgatish;
- ansambl darslari orqali jamoaviy ijro ko'nikmasini shakllantirish;
- maktab tadbirlarida va ko'rik-tanlovlarda o'quvchilarning chiqishlarini tashkil etish.

Umumta'lim maktablarida musiqa to'garaklarini tashkil qilish uchun quyidagi shart-sharoitlar lozim:

- akustik jihatdan musiqa to'garagiga mos xona;
- milliy (doira, dutor, rubob, nay kabi) va jahon musiqa cholg'ulari (fortepiano, baraban kabi);
- musiqa nazariyasi va amaliyotiga oid nazariy adabiyotlar;
- milliy va jahon kuylarining nota va ovozli namunalari.

Musiqa to'garagidan kutiladigan natijalar:

- o'quvchilar ijorosini turli bayramlar (O'qituvchi va murabbiylar kuni, Xotira va qadrlash kuni, Navro'z sayllari kabi) va tadbirlar (ochilish marosimlari, musoboqalar kabi)da namoyish etish;
- o'quvchilarda intellektual va estetik jihatdan rivojlanish;
- qadriyatlarga hurmat va milliy o'zlikni anglatish;
- o'quvchilarda jamoaviy hamkorlik ko'nikmasini shakllantirish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilarning intellektual va estetik jihatdan rivojlanishida musiqa to'garaklarining o'rni hamda ahamiyati yuqori. Ushbu natijaga erishish uchun har bir umumta'lim maktablari tarkibida musiqa to'garaklari faoliyat yuritishi joiz. Chunki ruhan sog'lom, ma'nan yetuk, jismonan barkamol avlod tarbiyasida musiqa ta'limining o'rni beqiyos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Murodova D. Musiqiy ong va tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent, 2021.
2. Schlaug G., Norton A., Overy K., Winner E. Effects of music training on the child's brain and cognitive development. The Neurosciences and Music II: From Perception to Performance, 1060, 2005.
– 219 – 230 p.
3. Яворский Б. Основы музыкального восприятия. – М.: Музыка, 1972. – 240 с.
4. Xasanov A. Musiqi avvali tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.